

**O‘zbek va nemis tillaridagi kolorinim tarkibli frazeologik birliklarning
etimologik xususiyatlari va semantik jihatlari**

**Etymological Characteristics and Semantic Aspects of Coloronym-Based
Idiomatic Expressions in Uzbek and German**

**Этимологические особенности и семантические аспекты
фразеологических единиц с колоронимами в узбекском и немецком языках**

Otayeva Karomatxon Matnazar qizi

UrDU xorijiy filologiya fakulteti

Lingvistika(nemis tili) 231-guruh magistranti

Email:otayevakaromat32@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Sapayeva Rayhon Bobojonovna**

Otayeva Karomatkhon Matnazar qizi

Urgench State University, Faculty of Foreign Philology

Master’s student, Group 231, Linguistics (German language)

Email: otayevakaromat32@gmail.com

Academic supervisor: Raykhon Sapayeva Bobojonovna

Отаева Караматхон Матназар кызы

Ургенчский государственный университет, факультет зарубежной
филологии

Магистрант, группа 231, Лингвистика (немецкий язык)

Электронная почта: otayevakaromat32@gmail.com

Научный руководитель: Райхон Сапаева Бобожонова

Annonatsiya. Ushbu ilmiy maqola “O‘zbek va nemis tillaridagi kolorinim tarkibli iboralarning etimologik xususiyatlari va semantik jihatlari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda asosan, ikkala tildagi rang komponentli frazeologik birliklarning tarixiy kelib chiqishi, qaysi davrlardan boshlab xalq orasida ommalashgani va bunday iboralarning paydo bo‘lishiga qanday omillar vositachilik qilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur iboralarning har ikki tildagi ma’noviy

jihatdan qanday o‘xshashliklari va farqli jihatlari aniqlanganligi ham bu ilmiy maqolada ko‘rib chiqilgan.

Abstract. This scientific article is dedicated to the topic "Etymological Characteristics and Semantic Aspects of Coloronym-Based Idiomatic Expressions in Uzbek and German." It primarily analyzes the historical origins of color-related phraseological units in both languages, the periods during which these expressions became widespread among the people, and the factors that contributed to their emergence. In addition, the article explores the semantic similarities and differences of such expressions in both languages.

Аннотация. Данная научная статья посвящена теме «Передача фразеологических выражений с колоронимами в немецком языке на узбекский язык и их лингвистическое применение». В статье проводится анализ того, как наименования цветов функционируют в фразеологизмах и выражениях в немецком и узбекском языках. Рассматривается роль цветовых фразеологизмов в лингвистике, их семантические, когнитивные и культурные особенности. Также исследуется, как фразеологизмы с названиями цветов в немецком языке переводятся на узбекский язык и как они трансформируются в культурном контексте.

Kalit so‘zlar: kolorinim, etimologiya, olamning lisoniy manzarasi, milliy-madaniy xususiyatlar, ma‘no, ekvivalentlik, shakllanish, oq, qora, qizil, qiyosiy-lingvokulturologik tahlil

Keywords: coloronym, etymology, linguistic worldview, national-cultural features, meaning, equivalence, formation, white, black, red, comparative linguocultural analysis

Ключевые слова: колороним, этимология, языковая картина мира, национально-культурные особенности, значение, эквивалентность, формирование, белый, чёрный, красный, сравнительный лингвокультурологический анализ

Kirish. Bizning bugungi ijtimoiy va kundalik hayotimizda nuqtimizning chiroyli chiqishi, uni tinglovchiga bekami-ko‘st yetkazib bera olishimiz ham aynan biz nutq jarayonida qo‘llaydigan so‘zlarning mohiyatiga va naqadar ta‘sirchanligiga ham borib taqaladi. Bunday so‘zlar, odatda, bizning so‘zlarimizning emotsional kuchini yanada oshirib bera oladi. Bunday so‘zlar tarkibiga, shubhasiz, iboralar ham kiradi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, frazeologik birliklar, ayniqsa, kolorinim (rang

bildiruvchi birliklar) ishtirokidagi frazeologizmlar, nafaqat tilning va nutqning obrazlilik va emotsional-ekspressiv boyligini, balki xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkur xususiyatlarini ham ifodalaydi. Kolorinim tarkibli frazeologik birliklar tillarda keng tarqalgan bo‘lib, ular orqali insonlarning atrof-muhit, ranglar bilan bog‘liq assotsiatsiyalari va ularning hayotiy-tarixiy tajribasi ifodalanadi. Ranglar turli madaniyatlarda har xil semantik konnotatsiyaga ega bo‘lganligi sababli, ushbu birliklarning qiyosiy-lingvokulturologik tahlili xalqaro madaniy muloqotni chuqurroq anglashga yordam beradi. O‘zbek va nemis tillaridagi rang komponentli frazeologik birliklarni o‘zaro qiyosiy tadqiq etish bu ikki xalqning lingvistik tafakkuri, madaniy-ma’naviy merosi va psixologik tasavvurlari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bugungi davrimizda ranglarning frazeologik birliklarni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati juda ko‘plab sohalarda,shu jumladan,tilshunoslik,madaniyatshunoslik yoxud psixologiya kabi bir qator sohalarda dolzarb mavzuga aylangan.Shuningdek,bu soha nemis tilshunos olimlari va lug‘atshunoslari tomonidan ham chuqur tahlil va tadqiq qilingan.Mashhur nemis tilshunosi, frazeologiya va leksikografiya sohaslarida ancha dovrug‘ qozongan Hans Shemann “Deutsches Wörterbuch der idiomatischen Redewendungen” (“Nemis tilidagi idiomatik iboralarning lug‘ati”) kitobida ham rang komponentli frazeologik birliklarga alohida to‘xtalib o‘tganlar.Shuningdek, taniqli va atoqli o‘zbek tilshunos olimlaridan Shavkat Rahmatullayev va Muxtor Umarxo‘jayev ham o‘zlarining leksikografiyaga doir kitoblarida, shu jumladan, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” va “Deutsches-russisches-usbekisches phraseologisches Wörterbuch” (“Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at”) kitoblarida aynan bunday iboralarning semantikasi va xalq tilida qanday atalishi ham so‘z boradi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyevalarning “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”,Sven Staffeldt, “Was ist Farbe”, Evgeniia Aleksandrovna Dobrova,“Deutsche und russische Phraseologismen mit Farbkomponenten aus lingvokultureller Sicht”,Duden-Deutsches Universalwörterbuch, Шавкат Раҳматуллаев,“Ўзбек тилининг этимологик луғати”, Yo‘ldoshev B,“O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti” va Hans Shemannning “Deutsche Idiomatik” kabi ilmiy asar va lug‘atlaridan foydalanildi.



Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada har ikki tilda ham lug‘at va ayrim badiiy asarlarda keltirilgan rang tarkibli frazeologik birliklar lingvokulturologik qiyoslash va etimologik tahlil metodlari asosida o‘rganilib, tahlil qilindi. O‘zbek va nemis tillaridagi ekvivalentlik darajasi, ma’noviy strukturasi va turlicha etimologik jihatlari har ikki til madaniyatidan kelib chiqqan holda taqqoslanildi. Umumiy o‘xshashliklar va farqlarga ham alohida e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Mashhur nemis tilshunosi, Erfurt universiteti professori Ksaba Foldes o‘zining 1991-yilda chop etilgan “Nemis, rus va venger tillaridagi rang atamaları frazeologik strukturaviy komponent sifatida” degan asarida bu bo‘yicha quyidagi fikrlarni ifodalab o‘tgan: “Oq rang tozalik, axloqiy qadriyatni ifodalaydi. Ammo qora rang bundan mustasno ravishda qarama-qarshi ta’sir kuchiga egadir: u pessimizm, motam, g‘azab, ta’qiq yoki vijdotsizlik kabi salbiy ramzlarga ishora qiladi”. Ushbu fikrlardan shunday to‘xtamga kelish joizki, ranglarning turli madaniyatlarda turlicha talqin etilishi o‘z navbatida, frazeologik birliklar qatlamidagi ma’noviy jihatlarga ham xuddi shu tarzda ijobiy yoki salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Chunki biz olamning lisoniy manzarasini ranglar orqali idrok etar ekanmiz, ushbu ranglarning qanday semantik tuzilishga va boshqa madaniyatlarning tilshunoslik sohalarida qanday majoziy ahamiyatga va talqinga ega ekanligi ham bunda muhim sanaladi. O‘zbek va nemis tilidagi kolorinim tarkibli frazeologik birliklar ham aynan shu asnoda tahlil qilinadi. Bu o‘rinda, eng avvalombor, har ikki tildagi rang tarkibli iboralarning etimologik jihatlarga e’tibor qaratish muhim sanaladi. Aytaylik, qora rang bilan ifodalangan frazeologik birliklarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ularning ko‘pchiligining ma’nosi salbiy tarafga yo‘nalganligini va har ikki til - o‘zbek va nemis tillaridagi ekvivalentlarining qay darajada mos ekanligini guvohi bo‘lish mumkin. Misol tariqasida, o‘zbek tilidagi “ko‘ngli qora” iborasi ham nafaqat xalq og‘zaki ijodida balki, ko‘plab badiiy adabiyotlarda ham o‘z aksini topib kelgan. Nemis tilida bu iboraga aynan muqobili “schwarze Seele haben” deb ataladi va u ayniqsa, yomon niyatli, shavqatsiz yoki axloqiy buzilishga ega insonlarga nisbatan ishlatilib kelingan. Bu iboraning asl kelib chiqishi bugungacha to‘liq o‘rganilib hujjatlashtirilmagan bo‘lsada, ammo paydo bo‘lish tarixi ancha uzoq va ko‘plab til va madaniy omillarga uzluksiz bog‘liq. “Schwarz auf weiß” iborasi ham nemis tilida keng tarqalgan iboralardan biri hisoblanadi va u o‘zbek tilida “oq-qora bilan yozilganidek, hujjatda qora bilan yozilgan” degan ma’nolarga egadir. Bu iboradagi schwarz so‘zi siyohga, weiß so‘zi

esa qog‘ozga ishora qiladi. Odatda, og‘zaki kelishuvlar soxtalashtirilgani yoki unutilib ketishi mumkinligi sababli ham hujjatlar aynan yozma tarzda bayon etilgan. Bu iboraning nemis tilida ko‘p tarqalishiga asosiy sabab shu Iogann Wolfgang Gyotening “Faust” asaridir. Chunki bu asarda shunday jumlar mavjud:

*“Denn, was man schwarz auf weiß besitzt,
Kann man getrost nach Hause tragen”*

Bu iborani o‘zbek adabiyotida va jurnalistikasida ko‘p uchratmasakda, boshqa sinonimlari bilan ham qo‘llanilib kelinadi. Shuningdek, bu ibora Muxtor Umarxo‘jayevning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at” kitobida aynan “qoraga oq bilan yozib qo‘ygandek, aniq-ravshan yozib qo‘yilgan” degan ma‘nolarda ishlatilgan. “Schwarze Gedanken machen” ya‘ni “qora xayollarga berilmoq” iborasining ma‘nosi har kki tilda ham — bu insonning salbiy, g‘amgin yoki tushkun fikrlar bilan band bo‘lgan ruhiy holatini bildiradi. Bu ibora har ikkala tilda ham ko‘proq badiiy asarlarda uchraydi. Shu jumladan, mashhur nemis yozuvchisi Wolfgang Gyotyening “Yosh Verterning iztiroblari” asarida quyidagi jumlar keltirilgan: “Ich bin so allein mit all meiner Pein, wie ich es nie gewesen. Ich kann meine schwarzen Gedanken nicht vertreiben; sie verfolgen mich unaufhörlich.” Bu jumalarda yosh Verterning uni hech ham qo‘yib yuborishni xohlamagan umidsiz xayollari o‘z tasvirini topgan. Bu o‘rinda keltirilgan qora xayollar aslida depressiya, ikkalanish yohud chorasizlikni ifodalab kelmoqda. Shuningdek, mashhur va betakror adib yozuvchilarimizdan bo‘lmish Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar asarida ham bunga yaqqol misol keltrilib o‘tilgan: “Ba‘zi kezlarda ul umid quchog‘ida shoshib qolar edi va ikkinchi vaqtda yaramas — qora xayollar bilan entikar edi.” Bundan tashqari, “In Schwarz gekleidet sein” yoki “sich Schwarz kleiden” iborasi o‘zbek tiliga “qora kiyimoq” shaklida tarjima qilinadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, qora rangda kiyinish turlicha kontekst va shaxsiy talqinga qarab turli ma‘nolarga ega bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p uchraydigan holatlardan biri — motam va xotirlash bilan bog‘liq bo‘lib, qora rang an‘anaviy tarzda motam ramzi sifatida qaraladi va ko‘pincha dafn marosimlarida kiyiladi. “Aus Schwarz weiß machen” iborasi esa o‘zbek tilida “qorani oq demoq” iborasiga mos ekvivalent sanaladi. Bu iboraning kelib chiqishi va tarqalishi oq va qora ranglarning sifatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Nemis tilidagi „aus Schwarz Weiß machen“ idiomatik iborasi zamonaviy lingvistikaning frazeologiya bo‘limida alohida semantik yuklamaga ega bo‘lgan rang ifodalari asosida shakllangan frazeologik

birliklar sirasiga kiradi. Bu jihatdan nemis va o‘zbek tillarida ayrim iboralarning tahlilini ko‘rib chiqar ekanmiz, ba’zi paytlarda iboralar orasida ma’lum bir o‘xshashliklarga va farqlarga duch kelishimiz tabiiy hol, aslida. “Etwas ist keinen roten Heller wert” degan ibora o‘zbek tilida “sariq chaqaga ham arzimaydi” deb tarjima qilinadi. Chunki Germaniyada mis qotishmasidan tayyorlangan tanga pullar ilgari “roter Heller” deb atalgan. Biroq bu tangalar juda arzon bo‘lgani sababli, vaqt o‘tishi bilan “etwas ist keinen roten Heller wert” iborasi paydo bo‘lgan bo‘lib, u mutlaqo qadrsiz, hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan narsani ifodalashda qo‘llanadi. Chunki bunday tangalar odatda tarkibidagi mis sababli vaqt osha qizil tusga kirib qolgan. “Jmdm einen roten Rock bringen” iborasi esa — poralamoq degan ma’noda ishlatiladi. Bu o‘zbek tilimizdagi “tomog‘ini moylamoq” iborasiga mos tushadi. “Knallrot werden” iborasi esa o‘zbek tilidagi “yuzi qizardi” iborasiga ekvivalent bo‘la oladi. Bu holat har ikkala tilda uyatdan yoki hayajondan yuzning qizil rangga kirishiga nisbatan qo‘llaniladi.

Xulosa. Biz yuqorida tahlil qilgan natijalarga ko‘ra, o‘zbek va nemis tillaridagi kolorinim (rang nomi) tarkibli frazeologik birliklarning lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish frazeologik birliklarning ikki til madaniyati, mentaliteti va til tuzilmasida qanday aks etishi o‘rganishga, ularning shakllanishi va qo‘llanilishidagi umumiylik va farqlar ochib berishga yordam beradi. Shuningdek, bunday iboralarning har ikki tildagi etimologik tahlili ham har bir tilning o‘ziga xos jihatlarini anglashda va olamning lisoniy manzarasini idrok qila olishimizda ko‘makchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hans Shemann, “Deutsche Idiomatik”, 2011
2. Evgeniia Aleksandrovna Dobrova, “Deutsche und russische Phraseologismen mit Farbkomponenten aus lingvokultureller Sicht”, Sankt Petersburg
3. Duden-Deutsches Universalwörterbuch, 7. Aufl. Mannheim 2011
4. Muxtor Umarxo‘jayev, “Deutsches-russisches-usbekisches Wörterbuch”, 1994
5. Шавкат Раҳматуллаев, “Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати”, 1978

